

"O'zkimyosanoat" AJ markaziy apparati va tarmoq korxonalari xodimlari o'rtasida "Zakovat" intellektual turniri o'tkazildi

// 23 August 2022 yil

<https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/uzkimyosanoat-aj-markaziy-apparati-va-tarmoq-korxonalar-i-xodimlari-urtasida-zakovat-intellektual-turniri>



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Zakovat" intellektual o'yinini aholi o'rtasida ommaviy-ma'rifiy harakatga aylantirish va boshqa intellektual o'yinlarni rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida" 2022-yil 20-yanvardagi PQ-96-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlislohotlarda xodimlarning faol ishtirokini ta'minlash, yuksak ma'naviyatli, mustaqil va erkin fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o'zlashtirgan, kuchli bilimga ega bo'lgan xodimlarni qo'llab-quvvatlash va ularga o'z iqtidorlarini namoyish etish uchun imkoniyat yaratish hamda ularni rag'batlantirish maqsadida 1-sentabr - Mustaqillik bayrami munosabati bilan joriy yilning 23-avgust kuni "O'zkimyosanoat" AJ markaziy apparati va tarmoq korxonalari xodimlari o'rtasida "Zakovat" intellektual turniri o'tkazildi. Xodimlarning bilim va salohiyatlari sinalgan bellashuvda "O'zkimyosanoat" AJ markaziy apparatining "Everest" jamoasi g'oliblikni qo'lga kiritdi. 2-o'rinni esa "Birinchi rezinotexnika zavodi" MCHJning "Bars" jamoasi egalladi. "Maxam-Chirchiq" AJning "Al-Kimyogar" jamoasi esa 3-o'rin sohibi bo'ldi. G'olib va sovrindorlar pul mukofotlari va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanishdi. 1-o'rinni egallagan jamoaga 50 mln so'm, 2-o'rinni egallagan jamoaga 25 mln so'm va 3-o'rinni egallagan jamoaga 15 mln so'mlik pul mukofotlari uchun maxsus sertifikatlar topshirildi. Shu bilan birga, mazkur intellektual turnirda qatnashgan barcha jamoalarga kitoblar jamlanmasi va sertifikatlar taqdim etildi.







  [uzkimyosanoat](https://t.me/uzkimyosanoat)

  [uzkimyosanoat.uz](https://www.instagram.com/uzkimyosanoat.uz)

 (+99878) 140-74-26



  [uzkimyosanoat](https://t.me/uzkimyosanoat)

  [uzkimyosanoat.uz](https://www.instagram.com/uzkimyosanoat.uz)

 (+99878) 140-74-26





"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati